

Viloyat, tuman va shahar hokimliklarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha kotibiyatlardagi vakant lavozim bo'yicha o'tkazilayotgan tanlov ishtirokchilari uchun

SAVOLLAR

1. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlarini ayting.
3. Yoshlar masalalari bo'yicha hududiy idoralararo kengashning vazifalari va funksiyalari nimalardan iborat?
4. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar haqida gapirib bering.
5. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining maqsad va vazifalarini ayting.
6. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishdan kutilgan natijalar nimalardan iborat? Shular to'g'risida gapirib bering.
7. Yoshlar huquqlari va erkinliklarining kafolatlari nimalardan iborat?
8. Mamlakatimizda iqtidorli va iste'dodli yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash qanday tartibda amalga oshirilmoqda?
9. Mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash qanday tartibda amalga oshirilmoqda?
10. Inson kapitali deganda nimani tushunasiz?
11. "Yoshlar daftari"ga kimlar kiritiladi?
12. "Yoshlar daftari"da ko'zda tutilgan imtiyoz va yengilliklar haqida gapirib bering.
13. "Yoshlar daftari"ga kiritilganlarga qanday yordamlar beriladi?
14. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga doir qanday vazifalar belgilangan?
15. Yoshlar qanday hollarda "Yoshlar daftari"dan chiqariladi?
16. Mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
17. Yoshlar yetakchilari o'ziga biriktirilgan mahallada faoliyatini qaysi yo'nalishlarda amalga oshiradi?
18. Yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishlarida yaratilgan imtiyozlar tizimi haqida gapirib bering.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 apreldagi "Navoiy viloyatining olis cho'l tumanlari aholisi turmush darajasini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2925-son qarorida yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga kirishi bilan bog'liq qanday imtiyozlar belgilangan?
20. Globallashtirish sharoitining salbiy tomonlarini sanab bering.
21. O'zbekiston ijtimoiy davlat tushunchasining mohiyatini tushuntirib bering.
22. Ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik deganda nimani tushunasiz?

23. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishga doir qanday vazifalar belgilangan?
24. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini ayting.
25. "O'zbekiston-2030" strategiyasi ijrosini 2024 yilda Navoiy viloyatida tashkil etish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari haqida ayting. Unda qanday maqsadlar ko'zlangan?
26. Mahallalardagi "ijtimoiy xodim" ning asosiy vazifalarini ayting.
27. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmat va yordamlarni ayting.
28. Ijtimoiy xodimlar tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmat va yordamlarni ayting.
29. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxsning alohida roziligini talab qilmasdan shoshilinch ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatiladigan holatlarni aytib bering.
30. Navoiy viloyatining qaysi tuman va shaharlari ijtimoiy xodimlar tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladigan olis va chekka hududlar hisoblanadi?
31. Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta'minlashga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
32. Olis va chekka hududlarda joylashgan byudjet tashkilotlariga boshqa hududlardan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun kelgan oliy ma'lumotli mutaxassis va (yoki) tibbiyot xodimiga boshlang'ich yordam puli va har oylik pul kompensatsiyasini to'lash tartibini tushuntirib bering.
33. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi bilan ishlash tartibini tushuntirib bering.
34. Ijtimoiy infratuzilma ob'yektlariga nimalar kiradi shular to'g'risida gapirib bering.
35. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi vakolatlarini ayting.
36. Davlat sog'liqni saqlash tizimi haqida gapirib bering.
37. "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
38. "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmining maqsadini tushuntirib bering.
39. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlarini ayting.
40. Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ayting.
41. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" ning maqsad va vazifalarini ayting.
42. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" da belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirish bosqichlari haqida gapirib bering.
43. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi vakolatlarini ayting.
44. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!" g'oyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
45. O'quvchilar bilimini baholashning xalqaro ta'lim dasturlari va ularning mazmuni to'g'risida gapirib bering.
46. Inson kapitali indeksining tarkibi nimalardan iborat? Tushuntirib bering.
47. Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalarini aytib bering.

48. Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlarini sanab bering.
49. Fuqarolarning ijtimoiy huquq va erkinliklariga nimalar kiradi?
50. "Inson manfaati har narsadan ulug'" g'oyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
51. Mafkuraviy immunitet nima? U qanday shakllantiriladi?
52. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi qanday? Uni o'z fikringiz bilan tasvirlab bering.
53. Milliy o'zlikni anglash deganda nimani tushunasiz?
54. Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlarni ayting.
55. Ma'naviy tahdid nima? Ularga misollar keltiring.
56. Ma'naviyat va jamiyatning yangilanishi deganda nimani tushunasiz?
57. Islohotlar va ularning ma'naviy mezonlari deganda nimani tushunasiz?
58. Globallashuv deganda nimani tushunasiz?
59. Xalqimizga xos yuksak insoniy fazilatlarni sanab bering.
60. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" g'oyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.